

TA'LIMDA DIDAKTIK O'YINLI TEXNOLOGIYALARNI TASHKIL QILISHNING  
SAMARADORLIGI

Atabayeva M

Shomuratova S

Atajanov O

Ro'zmatova Z

UrDU akademik litseyi o'qituvchilari

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lif tizimida didaktik o'yinlar, ularni tashkil qilish va ularning afzalliklari haqida so'z yuritiladi. Pedagogik texnologiyada didaktik o'yinlar juda katta ahamiyat kasb etadi, shuning uchun dars jarayoniga ularni tadbiq qilish juda katta ahamiyatga ega.

**Kalit so'zlar:** Didaktika, didaktik o'yinlar, pedagogika, pedagogic texnologiya, ta'lifda didaktik o'yinlar.

**Abstract:** This article talks about didactic games in the educational system, their organization and their advantages. Didactic games are very important in pedagogical technology, so their application in the teaching process is very important.

**Key words:** Didactics, didactic games, pedagogy, pedagogical technology, didactic games in education

**Абстрактный:** В данной статье говорится о дидактических играх в системе образования, их организации и преимуществах. Дидактические игры имеют большое значение в педагогической технологии, поэтому их применение в учебном процессе очень важно.

**Ключевые слова:** Диадактика, дидактические игры, педагогика, педагогическая технология, дидактические игры в обучении.

Didaktik o'yinli texnologiyalar o'quvchilarning bilim olish faoliyatini o'yin faoliyati bilan qo'shib olib borishdan iborat. Didaktik o'yinlar musobaqa, raqobat, o'zaro yordam, hamkorlik tarzida olib boriladi. Buning uchun o'qituvchi didaktik o'yindan ko'zda tutilgan maqsad, uni amalga oshirish yo'llari, o'yin mazmuni va ishtirokchilar faoliyatini aniqlab oladi. Didaktik o'yin darslari tallim va tarbiya berish, o'quvchilar ijodiy faoliyatini yo'halтирish, kasbga yo'naltirish, o'quvchilarning o'zaro muloqot va nutq madaniyatini rivojlantirish, ular bilimlarini chuqurlashtirish va shaxsini rivojlantirish vazifasini bajaradi.

Didaktik o'yinli darslarni o'z mazmuniga ko'ra sahnalashtirilgan rolli o'yinlar, ijodiy ishbilarmonlik o'yinlari, konferensiya va o'yin mashqli darslarga

ajratish mumkin. Bunday o'yinlar muammoli vaziyatning bir turi bo'lib, hayotiy vaziyatlar o'quvchilar tomonidan sahnalashtirishdan iborat. Ishbilarmonlik va sahnalashtirilgan rolli o'yinlarda didaktik maqsad o'quvchilar oldiga vazifa tariqasida qo'yiladi; ularning o'quv faoliyati o'yin qoidasiga bo'ysundiriladi. Bu maqsadda o'quv materialidan foydalaniлади.

Ishbilarmonlik o'yinida ishtirokchilarga o'yin mavzusi taklif etiladi. Mavzu bo'yicha ular oldiga bitta umumiy maqsad, ya'ni taklif etilgan muammoni yechish qo'yiladi. Har bir ishtirokchi o'zining roliga muvofiq qaror qabul qiladi va bu haqda guruh bilan maslahatlashadi. Umumiy maqsadning bajarilishi barcha guruh faoliyati bilan bog'Jiq. Baholash o'quvchilarning tashkiliy faoliyati va ular rolli maqsadlarining bajarilishi bilan belgilanadi.

Zoologiya darslarida ishbilarmonlik o'yinlaridan uy hayvonlari zotlari yoki Qizil kitobga kirgan hayvonlarni o'rganishda foydalanish mumkin.

Rolli o'yinda ham barcha ishtirokchilar biigalikda faol ish olib borishadi. Lekin rolli o'yinda har bir ishtirokchining individual maqsadi to'g'risida barcha guruh a'zolari bilan kelishib olinmaydi. Chunki har bir ishtirokchining maqsadi o'zini ko'rsatish va g'alaba qozonishdan iborat bo'ladi. Baholashda har bir ishtirokchining harakati hamda umumiy maqsadga erishish natijalari hisobga olinadi.

Rolli o'yinlarda bir-birini inkor etuvchi vaziyatlar paydo bo'ladi va har bir ishtirokchi bu vaziyatdan chiqish uchun mantiqan to'g'ri yo'lni tanlaydi. Tshlab chiqilgan rolli o'yinlar mumkin qadar o'quv materiali bilan bog'langan va hayotiy, ishtirokchilarning yoshi va tayyorgarlik darajasiga mos kelishi lozim.

Biologiya darslarida didaktik o'yinlarning ahamiya juda katta, chunki didaktik o'yinlar orqali o'quvchi dars jarayonida mavzuga oid barcha ma'lumotlarni ichiga to'la to'kis his qilib kirib bora oladi, masalan zoologiya darslarida hayvonot olamini o'rganish jarayonida biror hayvonni hayotiy tarzini tushunib olish uchun hayotda uning qiyofasiga kirish kerak, bunda esa sahnalashtiruvchi va rolli-syujetli o'yinlar yordam beradi.

Quyida didaktik metodlardan sahnalashtiruvchi o'yinlar metodini zoologiya darslarida "Qushlar sinfi" mavzusini qiziqarli tahkil qilish maqsadida qo'llab ko'rdik.

**Qushlar kunini bayram qilish.** Qushlar kuni bahor faslida bayram qilinadi. Bayramga bir oy oldin tayyorgarlik ko'rila boshlanadi. Unda 7—9-sinf o'quvchilari ishtirok etishadi. Bayramni o'tkazish uchun 6-10 kishidan iborat yig'ma komanda tuziladi; har bir komandaning kapitani belgilanadi. Komandalar oldiga quyidagi vazifalar qo'yiladi:

—komanda nomi va emblemasini tayyorlash;

—komandaga musavvir tayinlash, qalam, qog'oz va bo'yoqlar tayyorlash;

—«eng chiroyli va jozibali qush» mavzusida uy vazifasini tayyorlash;

— sinf o'quvchilari bilan birga «qushlan» mavzusida plakatlar va devoriy gazeta tayyorlash, she'r va qo'shiqlar o'rganish;

— mehnat o'qituvchisi bilan birga qushlar uchun inlar tayyorlash. Bayramga tayyorlanish mobaynida komanda a'zolari yozib olingan qushlar ovozini yuqori sinf o'quvchilari boshchiligidagi eshitishadi; diafilmlar, videofilmlar, darsliklar, plakatlar, albomlar yordamida qushlarning tuzilishi va hayotini o'rganishadi. Aytildigan monolog va bajariladigan ishlarni har bir komanda puxta ishlab chiqadi va buni boshqa komandadan sir tutadi.

Konkurs «Tanishuv», «Bu qushlarni bilasizmi», «Qushlar ovozi», «Qushlar krossvordi» kabi qismlardan iborat bo'ladi. Bayram ssenariysini o'quvchilar biologiya o'qituvchisi bilan bamaslahat tuzib chiqishadi. «Qushlar ovozi» konkursi uchun qushlarning sayrashi yozilgan audiokasseta yoki plastinkalar, «Bu qushlarni bilasizmi?\* konkursi uchun qushlar rasmi tushirilgan stendlar zarur. Konkurs savollariga javob berisli paytida paydo bo'ladigan pauzalar komandalar ishqibozlari konkursi bilan to'ldirilishi kerak. Bayram o'tkaziladigan zal ishqibozlar chizgan plakatlar bilan bezatilgan bo'ladi. Har bir plakat uchun komandaga ikki ball beriladi. Bayram kuni konkurs boshlanishidan oldin zalda bahor va qushlar mavzusida kuy va musiqa eshitilib turadi. Musiqa tinib, sahnaga boshlovchi chiqadi.

**Boshlovchi:** bundan million yillar oldin yer yuzida qushlar paydo bo'ldi. Ular paydo bo'lishi bilan olam ranglarga to'lib, chiroy ochdi. Osmonu falak ularning sho'x kuylariga to'ldi. Yana million yillar o'tib qushlarning sho'x kuylaridan zavqlanadigan odam paydo bo'libdi. Odam o'rmonda ketayotib taqir-tuqur etgan ovozni eshitib qolibdi. Boshini ko'tarib qarasa, laylakbaland daraxtga shox-shabbalardan in qurib olibdi. U taqir-tuqur qilib sayrab, o'z juftini yoniga chaqirayotgan emish. Odam boshini qashib ko'p o'yabdi, Boshini ko'p qashiganidan sochlari ham to'kila boshlabdi. Oxiri u ham shox-shabbalardan chayia qurishni o'rganib olibdi. O'z chaylasida bola-chaqasi bilan mazza qilib yashay boshlabdi.

Odam boshini yana ko'tarib tepaga qarasa, baland osmonda lochin parvoz qilayotgan ekan. Odam ham uchishni xohlab qolibdi. Qanot yasab o'zini baland daraxt shoxidan tashlabdi, lekin ucholmabdi. Juda ko'p o'yab, samolyot yasashni o'rganib olibdi. Odam yana boshini ko'tarib tepaga qarasa, osmonu falakda sayrayotgan, qanot qoqib goh tepaga tik ko'tarilayotgan, goh pastga sho'ng'iyotgan, goh havoda osilib bir joyda

turadigan to'rg'ayga ko'zi tushibdi. Odam endi do'ppisini tizzasiga qo'yib uzoq o'ylabdi va vertolyotni o'ylab topibdi.

Ana shu tariqa oxir-oqibat osmono'par binolar, har qanday qushdan ham tez uchadigan samolyotlar paydo bo'libdi. Endi samolyotlar turganida qushlarga yo'l boisin. Lekin samolyot 100 km masofaga bir necha tonna yoqilg'i sarflaydi. Sinchalak esa o'sha masofaga atigi 1 gramm yog' sarflaydi. Odam samolyotda yoki paroxodda uzoq mamlakatlarga yo'l olganida murakkab elektron asboblar yordamida mo'ljal oladi. Qushlar esa hech qanday texnikadan foydalartmasdan uzoq issiq mamlakatlarga uchib ketishadi va adashmasdan o'zlari tug'ilib o'sgan yurtlarini topib kelishadi. Qushlar odamlarga nisbatan yaxshi eshitishadi, yaxshi ko'rishadi. Epchil va kuchli yigitlarni esa xalqimiz lochinga yoki qarchig'ayga o'xshatishadi. Qushlaming chiroyi va sho'x sayrashi o'lkamiz chiroyiga chiroy qo'shadi. Qushlarning ovozi bahri dilimizni ochadi. Qusblarning chiroyi va sayrashi insonga huzur bag'ishlaydi, ilhom beradi, uni yashashga va ijod qilishga chaqiradi. Qushlarsiz olam olam emas, bog' bog' emas, ularsiz jarmat ham bo'lmas.

Qushlar millionlab hasharotlar va kemiruvchi zararkunandalarni qirib, bizning rizq-ro'zimiz bo'lgan ekinlar hosilini saqlab qoladi; o'lat, bezgak, terlama kabi xavfli kasalliklar tarqalishining oldini oladi. Buning uchun qushlarga rahmat aytamiz.

Buguiin litseyimizda qushlarga bag'ishlangan bayram. Bayramimizga uzoq issiq o'lkalardan qaytib kelgan qanotli do'stlarimiz tashrif buyurishgan. Ularning sho'x kuylarini eshitib, qushsevar komandalar konkursini tomosha qilamiz.

Sahnaga eng yaxshi qushsevar komandalarni taklif etamiz. Marhamat, ularni kutib oling. (Uchrashuv kuyi yangraydi, qushlarning sayrashi eshitiladi, sahnaga-komandalar chiqadi; boshlovchi konkurs hay'ati a'zolari, mehrnonlar, komandalar va ishqibozlarni tanishtiradi).

**Boshlovchi:** konkursni komandalar topqirligini aniqlashdan boshlaymiz. Qaysi komanda bir minut davomida eng ko'p savolga javob boshishini aniqlaymiz. Har bir to'g'd javob uchun 1 ball beriladi. Birinchi komanda a'zolariga savol beriladi. Hay'at a'zolari, vaqt ni belgilang. Boshladik!

- eng mitti qush (kolibr);
- nima uchun o'rdak suvdan quruq chiqadi? (patlarini yog'lab turadi);
- havo tuxumning qaysi qismida bo'ladi? (to'mtoq tomonida);
- qaysi qushlaming boshi va ko'kragida toj bor? (tovuqsimonlaming);
- qushlarilik suyagidagiilik qanday rangda? (iligi bo'lmaydi);

- qaysi qush uya qurmaydi? (kakku);
- o'dak qaysi turkumga mansub? (g'ozsimonlar)
- bedana qaysi turkumga mansub? (tovuqsimonlar);
- hakka qaysi turkumga mansub? (chumchuqsimonlar);
- laylakning oyog'i nima uchun uzun (patlari suvga botmasligi uchun).
- qizilishtonning nimasi qizil? (durnining osti).

**Boshlovchi:** savollarga javob navbatni ikkinchi komandaga beriladi.

Hay'at raisi, vaqtini belgilang. Boshladik!

- eng yirik qush (Afrika tuyaquushi);
- qaysi qush hiyla ishlatib jo'jalarni dushmanidan saqlab qoladi? (tuvaloq);
- qush qanotida nechta barmoq bor? (uchta);
- laylak qanday ovoz chiqaradi? (tumshuqlarini bir-biriga urib);
- nechta tovuqdanbitta paryostiq olish mumkin? (tovuq paridan foydalanimaydi);
- tuyaqush nima sababdan ucholmaydi? (patlari yelpig'ichi bo'lmaydi);
- qaysi qush dumiga tayanib harakatlanadi? (qizilishton);
- emu qaysi turkumga mansub? (tuyaquhsimonlar);
- musicha qaysi turkumga mansub? (kaptarsimonlar);
- so'fito'rg'ay qaysi turkumga mansub? (chumchuqsimonlar).
- boltayutar boltani qanday qilib yutadi? (suyak yutadi).

**Boshlovchi:** topqirlar konkursi tamom bo'ldi, javoblami baholash uchun so'z hay'at raisiga beriladi (hay'at raisi javoblarni bahojaydi).

**Boshlovchi:** navbatdagi «Qushlarni bilasizmi?» konkursimizni boshlaymiz. Marhamat qilib sahnaga stendlarni olib chiqing (sahnaga bir xil turdag'i qushlar rasmi yopishtirilgan ikkita stend olib chiqiladi).

Komanda a'zolari 5 minut davomida qushlarning tartib nomeri bo'yicha ular nomini yozib berishlari lozim. Har bir topilgan qush uchun bir ball beriladi.

**Boshlovchi:** komandalar konkurs shartlarini bajarguncha ishqibozlar o'rtasida «Tuxum yig'ish» konkursini o'tkazamiz. Konkursda har qaysi komanda ishqibozlaridan 6 tadan o'quvchi qatnashadi. Har bir komandaga likopchada 1 tadan tuxum topshiriladi. Likopcha olgan o'quvchi hay'at a'zolaridan yana bitta tuxumni qo'shib, navbatdagi o'quvchiga topshiradi. Oxirgi o'quvchi 6 ta tuxumni likopchada hay'at a'zolariga topshiradi. Likopchadan tushib ketgan tuxumlar hisoblga olinmaydi. Konkurs g'oliblariga qo'shimcha 3 ball beriladi. Boshladik!

**Boshlovchi:** «Qushlarni bilasizmi» va «Tuxum yig'ish» konkurslari natijalarini hamda komandalar to'plagan ballarni e'lon qilish uchun so'z hay'at a'zolariga beriladi. (Hay'at a'zolari natijalarni e'lon qilishadi).

**Boshlovchi:** (qushlar haqida she'r aytadi); Endi «Qushlar ovozi» konkursini boshlaymiz. (Zalda o'nlab qushlar ovozi navbat bilan eshittiriladi, har qaysi komanda bu ovozlami eshitilgan tartibda yozib, hay'at a'zolariga uzatishadi.)

(Eshik taqffaydi, qo'riqxona o'rmonchisi chap qo'fida kaptar, o'ng qo'lida zag'cha tulumi bilan kiradi).

**O'rmonchi:** mening o'ng qo'limda ukki, chap qo'limda qarchig'ay degan qush. Ularni hozir otib oldim. Boshimni ko'tarib qarasam, ukki daraxt shoxiga qo'nib olib, yangi tug'ilgan qo'zichog'imni ovlamoqchi. Qarchig'ay aylanib parvoz qilib yuribdi, yangi tug'ilgan buzoqni ovlamoqchi. Har ikkalasini bir o'q bilan otib olib, sizlarga ko'rsatish uchun olib keldim. Qanday, to'g'ri qilibmanmi, bolalar?

**Boshlovchi:** 1-komanda a'zolari, sizlar o'rmonchi so'zlariga qo'shilasizmi? (o'quvchilar chap qo'lidagi qush kaptar ekanligi, ukki kunduzi ov qilmasligi, qo'zichoqni ovlamasligi, kaptar va ukkining tuzilishi va hayot kechirishiga xos bo'lgan 10 ta xususiyatlarni aytib berishadi).

**Boshlovchi:** Endi 2-komanda a'zolari o'rmonchining so'zlarini izohlab berishadi (O'quvchilar o'rmonchining o'ng qo'lidagi qush zag'cha ekanligini, qarchig'ay aylanib uchmasligini, zag'cha va qarchig'ay uchun xos bo'lgan 10 ta xususiyatni keltirishadi. Har bir to'g'ri javob 1 ball, jami 10 ball bilan baholanadi).

**Boshlovchi:** endi musawirlar konkursini boshlaymiz. Marhamat, sahnaga 2 ta oq qog'oz yopishtirilgan stend keltirilsin. Har bir komanda musawirlari qirg'ovul rasmini 10 minut davomida chizib berishini iltimos qilamiz. Rasm 5 ball bilan baholanadi.

Qani, boshladik.

**Boshlovchi:** musavviflar rasm chizguncha ishqibozlardan sher va topishmoqlar eshitamiz. Har bir sher yoki topishmoq bir ball bilan baholanadi.

2-komanda ishqibozidan boshlaymiz (she'r va topishmoqlar o'qilgach, hay'at a'zolari komandalar va ishqibozlar ishini baholaydi va ular yig'gan ballarni e'lon qiladi).

**Boshlovchi:** endi «Qushlar krossvordi\* konkursimizni boshlaymiz. Marhamat, sahnaga 2 stend va harftar keltirilsin. Komandalar maxsus parol bilan o'z «qtishchalan»ini topib olishadi. 1-komanda paroli «Bulbul olmoqchimisiz?\* Javobi: «Yo'q, qafas olmoqchiman». 2-komanda uchun parol: «Qaldirg'och qachon uchib keladi?\*. Javob: «0'rik gullaganida». (Komandalar o'quvchilar orasidan o'z «qushchalan» ini topib, sahnaga olib chiqishadi; «qushchalan» ularga bir pakct harflar va ularni qadash uchun ignalar topshirishadi).

**Boshlovchi:** komandalar 5 minut davomida stendda o'zlari xohlagan qushlar nomini harflardan tuzib berishadi. Har bir qush uchun 1 ball beriladi(konkurs shartlari bajarilguncha hay'at a'zolari eng yaxshi plakatlar, yasalgan qush inlari, deyoriy gazetalar, qushlar rasmi va kolleksiyalarni baholab, e'lon qilishadi. G'oliblar taqdirlanadi).

**Boshlovchi:** Aziz qushsevarlar, hurmatli ishqibozlar va mehmonlar, bayram konkurshniz nihoyasiga yetmoqda. Endi o'quvchilar taqdim etgan qush inlarini maktab uchastkasiga, rasmlarni biologiya xonasiga osib qo'yishimiz lozim. Maktab uchastkasiga inarhamat qiling. (Qushlarning sayrashi, musiqa eshitiladi, hamma zaldan chiqadi.)

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.J.O.Tolipova. Biologiya o'qitishda pedagogic texnologiyalar Toshkent 2011y
- 2.N.M.Abduraxmonova Biologiya fanini o'qitishda innovations ta'limning afzalliklari. Va uning imkoniyatlari.Toshkent 2012y